

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995 yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

3-2023

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

M.B.Yuldasheva	
Tabiiy fanlar yo'nalishi talabalarining ingliz tilini o'rganish ehtiyojlariga bo'lgan munosabati tadqiqoti	580
Sh.Dadabayeva	
Qo'shma gaplar turkumida qiyoslash mazmunidagi bog'lovchisiz qo'shma gaplar	583
G.R.Mamadaliyeva	
Ingliz va o'zbek tillarida "foot/oyoq" kontseptining nominativ maydoni	587
Z.M.Abdullaev	
Asl turkiy antroponimlar va ularning tarixiy-etimologik shakllanishi	595
X.Abdurahmonov	
O'zbek tilshunosligi tarixida mavhum otlarning o'rganilishi va ularning ahamiyati	599
M.R.Otaboyeva	
O'zbek va ingliz tillaridagi fe'l semantik kategoriyalari bo'yicha tuzilgan graduonimik qatorlarning o'xshash va farqli jihatlari	603
Z.Q.Jurayeva	
Til o'rganish aspektlari	606
D.R.Axmadaliyeva	
Ingliz tili darslarida gamifikatsiyani qo'llash	610
D.O'.Yusupova	
Chet tili o'qitishning modellari haqida	615

TILSHUNOSLIK

S.G'.Shomurodova	
Nikoh urf-odatlar bilan bog'liq kiyimlarning to'y qo'shiqlaridagi poetik talqini	619
S.O.Samiyeva	
Tojik tilidagi frazeologik evfemizmlar	624
M.M.Abdulxayeva	
Tilshunoslikda sinonimiyaning o'rganilishi va uning turlariga oid olimlarning qarashlari	628
D.L.Homitov	
Klassik fors va hozirgi tojik tillaridagi qisqa unilarning fonologik qiyosiy tahlili	632
Z.V.Alimova	
Alisher Navoiyning "Saddi Iskandariy" asaridagi ayrim forscha qo'shma so'zlarning leksik-semantik xususiyatlari haqida	639
Z.S.Tashtemirova, M.S.Kushmatova	
Rus va ingliz tillarida odamning ko'rinishini tavsiflovchi frazeologizmlar	644
M.N.Tilloxojayeva	
Kognitiv kompetentsiya va uning tojik tilini o'qitishdagi o'rni	649
D.Z.Mukumova	
Shayx Kamol Xo'jandiy g'azallaridan Ismat Buxoroiyning ta'sirlanishi	654
S.M.Saidova	
O'zbekiston oliy ta'lim oliygohlari milliy guruhlarida rus o'g'zaki va yozma nutq o'qitilishi	658
N.X.Toshnazarova	
Xitoy tilida maqol va matallar	662
M.M.Gaziyeva	
Publististik uslub matnlarida tagma'no hodisasi xususida	665

TIL O'RGANISH ASPEKTLARI
АСПЕКТЫ ИЗУЧЕНИЯ ЯЗЫКА
ASPECTS OF LANGUAGE LEARNING

Jurayeva Zamiraxon Quchqarboyevna¹

¹Jurayeva Zamiraxon Quchqarboyevna

– TATUFF Xorijiy tillar kafedrasasi assistenti

Annotatsiya

Maskur tadqiqotning maqsadi xorijiy tillarni ikkinchi til sifatida o'rganuvchilarning til o'rganish strategiyalarini tadqiq qilish natijalarini ochib berishdan iborat. Maqolada zamonaviy tendensiyalarga asoslangan holda til o'rganish usullari va yo'llari misollar orqali keltirilgan va xorijiy tillarni tadqiq qiluvchi olimlar va izlanuvchilarning tajribalari o'rganilgan. Xorijiy tillarni o'rganishda internet tarmoqlari va platformalaridan izchil foydalanish orqali individual strategiya yaratishning avfzalliklari keng muhokama qilingan.

Аннотация

Целью данного исследования является изучение результатов стратегий изучения языка у изучающих иностранный язык. В статье на примерах представлены методы и способы изучения языков, основанные на современных тенденциях, а также изучен опыт ученых и студентов, занимающихся изучением иностранных языков. Широко обсуждались преимущества создания индивидуальной стратегии за счет последовательного использования интернет-сетей и платформ в изучении иностранных языков.

Abstract

The purpose of the present study is to reveal the results of the study of language learning strategies of foreign language learners. In the article, the methods and ways of language learning based on modern trends are presented through examples, and the experiences of scientists and students researching foreign languages are studied. The advantages of creating an individual strategy through the consistent use of Internet networks and platforms in foreign language learning have been widely discussed.

Kalit so'zlar: *strategiya, motivatsiya, ko'nikma, uslub, samaradorlik, ravonlik, izchillik, internet, audiokitoblar, qo'llanmalar.*

Ключевые слова: *стратегия, мотивация, мастерство, стиль, эффективность, последовательность, интернет, аудиокниги, пособия.*

Key words: *strategy, motivation, skill, style, efficiency, fluency, consistency, internet, audiobooks, manuals.*

KIRISH

Oliy va o'rta maxsus ta'lim tizimida faoliyat yuritadigan har bir bir professor-o'qituvchi darsga kirishdan oldin yaxshilab tayyorlanadi va ta'lim olish istagida darsga keladigan o'quvchi yoki talabasini ko'z oldiga keltiradi. Bu esa mazkur pedagogdan o'z ustida ishlashni, amaliy mashg'ulotlarni samarasini oshirishga yordam beradigan ilg'or o'qitish metodlarni o'rganizshga, o'z ustida ishlashga undaydi.

Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning tashabbuslari va e'tiborlari tufayli sohada o'qitish, o'rganish va ma'lumotlar almashish strategiyalari rivojlanib bormoqda. Pedagogika rivojiga o'z hissasini qo'shgan, ta'lim sifatini oshirishga ulkan hissa qo'shgan yetuk olimlarning tajribalari va tadqiqot natijalari ham ta'lim tizimimizga kirib kelmoqda. Bu esa o'z o'rnida yurtimiz professor-o'qituvchilari zimmasiga ulkan mas'uliyat yuklamoqda.

Til o'rganish, bir necha tillarda o'z fikrini erkin ifoda qilish bugungi kun talabi! Barcha xorijiy tillar qatori ingliz tilini o'rganish jarayoni ham til o'rganish metodlari bilan takomillashtirildi.

Tadqiqotchilar til o'rganishning an'anaviy usullaridan ko'ra til o'rganuvchilarning o'zlari tomonidan o'ylab topilgan metodlarning samarasi ko'proq ekanligini aniqlashgan. Individual tanlangan usullar tilning ravonligi va ikkinchi tilni tez o'zlashtirishlariga yordam beradi. Bular o'rganuvchining xatti-harakatlari, fe'l-atvori, o'y-fikrlaridan kelib chiqib shakllangan bo'ladi.

ASOSIY QISM

Til o'rganish strategiyalari va uslublari chet tillarini ikkinchi til sifatida o'rganuvchilar uchun asosiy omildir.

ADABIYOTSHUNOSLIK

Ikkinchi til — kundalik muloqotning asosiy vositasiga aylanib, judayam ko'p ma'lumotlarni olish zaruratu tug'ilganda o'rganiladigan tildir. Chet tili – bu kundalik muloqot uchun asosiy vosita bo'lmagan, va bu tilda so'zlashish cheklangan muhitda o'rganiladigan tildir.

Til o'rganish asosan bolalar bog'chasida yoki boshlang'ish sinflarda boshlanib, o'рта maktabgacha davom etadi. Kollej yoki universitet talabasi bo'lganda chet tillaridagi adabiyotlardan foydalanib asosiy fanlarini oson o'rganadi. Bundan tashqari, til o'rganish yosh avlodni tinglash qobiliyatini oshirish, xotirasi, ijodkorligi va tanqidiy fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi. Shuning uchun, darslarda zamonaviy metodlarini qo'llash orqali o'qitish mexanizmini takomillashtirish murakkab vazifadir. Ayrim vaqtlarda o'quvchilarga individual yondashuv talab qilinadi. Bugungi kun pedagogi psixolog bo'lishi kerakligi ko'p aytilgan, sababi, o'quvchining kayfiyatini, xarakterini bilishi o'qituvchiga o'qitish metodlarini saralashda yordam beradi. Bundan tashqari, auditoriyalarda til o'rganish samaradorligi susyib borayotgan hozirgi davrda til o'rganuvchilarga muqobil variantlarni xam ko'rib chiqish kerak bo'ladi.

Chet tillarini o'rganish subyektivdir va zamonaviy olamda internet orqali ko'plab ma'lumotlarni izlab toppish mumkin. Bir o'rganuvchu uchun mos kelgan usul va metodlar boshqalarga to'g'ri kelmasligi va natija ko'rsatmasligi mumkin, ko'pchilikning fikricha, o'rganilayotgan tilning madaniyatiga va muhitiga sho'ng'ib ketish kerak. Ammo dunyoning boshqa mamlakatiga istalgan payt ko'chib ketolmaysiz. Sizga internet tarmog'i mavjudligi kifoya. Quyida internet tarmog'i yordamida til ko'nikmalarini rivojlantirish imkoniyatlarini ko'rib chiqamiz;

Tomosha qilish va tinglash:

1. Netflix, Amazon Prime, Apple TV kabi platformalardan o'rganilayotgan tilda kinofilmlar va teleseriallar tomosha qilish;

2. Youtube tarmog'ida subtitrlri bepul videoroliklar tomosha qilish;

3. Youtube, Spotify, Apple Podcasts, Amazon Music platformalarida o'rganilayotgan tilda ijro qilingan musiqalar tinglash;

4. Maskur tildagi qo'shiqlarning pleylistlarini tuzib muntazam tinglash;

5. Youtube, Amazon Kindle kabi platformalarda o'rganilayotgan tilda hikoya qilib beruvchi audiokitoblarni tinglash;

6. O'rganilayotgan xorijiy tilda so'zlovchi aktyorlar, rassomlar, siyosatchilar va barcha mashhur insonlarning nutqlarini tinglab boorish;

7. Madaniy tadbirlar, ommaviy bayramlar, ijodiy kechalar, intervyularni xorijiy tilda talqin qilingan dasturlarini kuzatib borish;

8. Uy yumushlari bilan band bo'lgan paytda yoki bog'da sayr qilayotganda o'rganilayotgan tilda kuylangan qo'shiqlarni birga kuylashga xarakat qilish.

Grammatik qoidalarni o'rganish;

1. Youtube videoroliklari, Google rasmlari, Wikipedia va boshqa bepul saytlar, shuningdek til o'rgatishga asoslangan web saytlardan alifbo va tovushlar talaffuzini o'rganish;

2. Youtubeda o'rganilayotgan tilni grammatikasi, lug'at va iboralarni o'rgatishga mo'ljallangan saytlarni topish va a'zo bo'lish;

3. Alifbo va grammatik qoidalarni o'z ichiga olgan elektron kitoblarni izlab topish va o'qib o'rganish;

4. Duolingo, Anki, Memrise, Mango kabi xorijiy til o'rgatishga mo'ljallangan ilovalarni yuklab olish va muntazam foydalanish.

Xorijiy til strukturasi o'rganish:

1. Youtube videoroliklari ostida beriladigan sharhlar va tekstlarni o'qish;

2. Kitob sharhlari, turli mahsulotlar reklamasi va ular haqida berilgan ma'lumotlarni o'qish;

3. Qiziqtirgan mavzulardagi maqola va tezislarni o'rganilayotgan tilda o'qish;

4. Internet tarmog'ida yoki ijtimoiy tarmoqlarda qisqa va qiziqarli faktlarni muntazam o'qish;

5. Mashhur shaxslar haqidagi yangiliklarni va turli ma'lumotlarni o'rganilayotgan tilda o'qish;

6. Qiziqtirgan qo'shiqlarning matnini o'qish va yodlash orqali yangi so'z va iboralarni o'rganish.

Maskur til o'rganish strategiyalarining barchasi xam xar bir o'rganuvchiga mos kelmasligi mumkin, shuning uchun o'rganuvchilarga o'zi uchun mos keladigan individual strategiya tanlashi yoki bir nechta usullar jamlanmasini saralab olishi mumkin.

Xorijiy tilni tezroq va samaraliroq o'rganish uchun faqat ishlashi aniq va samarali bo'lgan usullarni tanlab olish til o'rganishga qo'yiladigan ilk qadamdir. Agar o'rganuvchi passiv tarzda til o'rganishni xohlasa, maskur tildagi kontentni saralab olishi va tinglashi uning til ko'nikmalarini ma'lum bir darajaga olib chiqadi. O'rganilayotgan xorijiy tilning alifbosidan boshlab boshlang'ich grammatika qoidalarini o'zlashtirish jumla tuzilmalari, fonetik va orfografik ko'nikmalarni shakllantirishga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Til o'rganuvchilar o'zlari uchun mos keladigan usul va strategiyalarni tanlashlari muhim masala, chunki o'rganish jarayonida duch keladigan umumiy muammolar ya'ni vaqt yetishmasligi, motivatsiya yo'qligi, va xato qilishdan qo'rqish kabi muammolarni yengishda to'g'ri tanlangan usullar yordam beradi.

Quyida ayrim filolog olimlar va izlanuvchilarning maskur muammolarni turli yechimlarini ochib berishga qaratilgan izlanishlari natijalarini birma bir tahlil qilamiz.

A. Antalikovaning "Chet tilini qanday o'zlashtirish kerak: til intellekti qanday ishlaydi" nomli kitobida "Nega yosh bolalar tillarni tez o'zlashtiradi?" degan muammoli masalani atroflicha tahlil qilgan. Muallifning fikricha har qanday bola o'z ona tilini hech qanday grammatik jadvallar va qoidalarsiz mukammal o'zlashtirib olishlari va darslarda o'qib o'rganayotgan o'quvchilardan yaxshiroq natijalarga erisha olishlarini yaxshi bilamiz.

G. Uayner tomonidan yozilgan "Doimiy ravonlik: qanday qilib har qanday tilni tez o'rganish va hech qachon unutmaslik" asarda chet tilini o'rganishda eng katta muammo-xotira muammosi deb aytiladi. Til o'rganish jarayonida juda ko'p qoidalar va so'zlarni yod olishga to'g'ri keladi. Ayrim hollarda bir yangi so'zni yod olish ikkita boshqa so'zlarni unutib qo'ygandek tuyg'u berishi mumkin. Maskur muallifning tadqiqot natijalariga ko'ra murakkab intervall takrorlash texnikasi yordamida har kuni bir necha daqiqadan bir oyda yuzlab so'zlarni yodlash imkoni mavjudligi ko'rsatilgan. Shu bilan cheklanmasdan til o'rganuvchilar qanday qilib grammatik qoidalar va noma'lum so'zlarni til darslari va grammatik mashqlarsiz o'rganish mumkinligi yuzasidan tavsiyalar berilgan.

K. Hammesning "Ravonlikka erishish mumkin" nomli kitobida til o'rganuvchilarni uzoq muddatli til o'rganish sirlari bilan tanishtiriladi. Unga ko'ra, muallif o'rganuvchilarni yuqori motivatsiya bilan mashqlarning yangi turlarini sinab ko'rishga ilhomlantiradi. Mashqlar bo'yicha tavsiyalar tinglash, o'qish gapirish va yozish toifalariga bo'lingan bo'lib, o'rganuvchilarning to'g'ridan-to'g'ri asosiy ko'nikmalarni o'zlashtirishlariga imkon yaratadi.

B. Lyuisning "3 oyda ravon so'zlash: qanday qilib har qanday yoshdagi odam dunyoning istalgan joyidan istalgan tilni o'rganishi mumkin?" kitobida har bir inson yoshidan qat'iy nazar bolalardek tilni tez va samarali o'rganish imkoniyatiga ega ekanligi to'g'risidagi nazariyasini ilgari suradi. B. Lyuis o'z tadqiqotlarini tilni tez, oson va samarali o'zlashtirish yo'llari va usullarini tadqiq qilishga va o'rganuvchilarning ongini eski qoidalar va streotiplardan tozalashga qaratadi.

Til o'rganish va o'qitish bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, "samarali til o'rganuvchilar" har doim foydalanadigan yagona strategiyalar to'plami mavjud emas. Til o'rganishga qobiliyatsiz talabalar tasodifiy, maqsadsiz, rejalashtirilmagan va nazoratsiz strategiyalardan foydalanadi. Bundan tashqari tadqiqot davomida til o'rganish strategiyalari va turi o'rganuvchining xorijiy til muhitida yoki ikkinchi til muhitida ekanligiga qarab farqlanishi ham isbotlandi.

XULOSA

Til o'rganishning turli strategiyalaridan to'g'ri foydalanishga qodir bo'lgan til o'rganuvchi o'zining til ko'nikmalarini mukammal reja asosida yanada yaxshilashi mumkin. Til o'rganish strategiyalari o'rganuvchilarning kommunikativligini rivojlantirishga yordam beradi. O'rganuvchilarning kommunikativ qobiliyatlarini oshirishga mo'ljallangan strategiyalarni to'g'ri saralash va yo'naltirish o'rganuvchining zimmasiga tushadi. O'rganuvchilarning yoshi, harakteri, qobiliyati, tirishqoqligi va intilishlariga ko'ra tanlangan strategiyalar amalda ishlaydi va samara beradi. Til o'rganishning ilk kunlarida o'qituvchi o'rganuvchilar o'rtasida so'rovnomalar o'tkazishi ham maqsadga muvofiq bo'lib, unda har bir til o'rganuvchining maqsadi, qiziqishlari va kommunikativligini tekshirib olish mumkin. So'rovnomalar natijalaridan kelib chiqib tanlangan individual strategiyalar, umumiy va hamma uchun belgilanganlardan samarasi yuqoriroq ekanligi o'z isbotini topgan. Ba'zi usul va metodlar o'rganuvchining tushunish, eslab qolish, vaziyatga to'g'ri

ADABIYOTSHUNOSLIK

baho berish, rejalashtirish va o'zlashtirish ko'nikmalarini mustahkamlashga xizmat qiladi. Bunda o'qituvchilarning qo'llab-quvvatlashi, motivatsiyasi va rag'batlantirishi ham muhim o'rin tutadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. S.Hall, "Language learning strategies: from the ideals to classroom tasks". 1997. Language and communication division, Temasek polytechnic on Internet
2. Obidova G. K. "Ingliz tilini o'rganishda ekologik madaniyatni rivojlanishini ta'minlovchi omillar". Oriental Renaissance: Innovative, Educational, Natural and Social Sciences, 2(Special Issue 20), 2022y.124-129.
3. Обидова Г. "Развитие экологической культуры в образовательных моделях развитых стран мира". Общество и инновации, 2(10/S), 2021. 251-256.
4. Jurayeva Z.Q. "Specific features of language in the development of culture". Volume2/Specific issue 27.ISSN 2181-1784. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7353385> 192-196 pages. Tashkent. 25.11.2022.
5. Jurayeva Z.Q. "Improving listening skills at preschools and primary schools". Maktabgacha va boshlang'ich ta'limning dolzarb masalalari. Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman. Fergana, 2022. 230-232 pages.